

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 312 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA


Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	69
Буранова Лола Вахобовна	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyrov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyrova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlarini.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA OSIYOCHA ISHLAB CHIQUARISH USULIGA ASOS SOLINISHI

Abdulla Abduqodirov

Iqtisod fanlari nomzodi,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Strategik islohotlar agentligi
direktorining birinchi o'rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usulining shakllanishi va rivojlantirishi masalalari tahlil qilinadi. Osiyocha ishlab chiqarish usuli – qadimiy zamonlardan boshlab O'zbekiston hududida keng tarqalgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, u yer egaligi, suv resurslari va agrar munosabatlar asosida shakllangan. Maqolada ushbu ishlab chiqarish usulining xususiyatlari, qishloq xo'jaligida qo'llanilgan usullar va texnologiyalar, shuningdek, uning bugungi kunda O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi ahamiyati va ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Osiyocha ishlab chiqarish usuli; qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti; fermer-dehqon xo'jaliklari; transaksion harajatlari; yerdan foydalanish samarasi.

Abstract: This article analyzes the formation and development of the Asian production method in Uzbekistan's agriculture. The Asian method of production is a socio-economic system that has been widespread in Uzbekistan since ancient times and was formed on the basis of land ownership, water resources and agrarian relations. The article examines the features of this production method, the methods and technologies used in agriculture, as well as its importance and impact on the agriculture of Uzbekistan today.

Key words: Asian production method; agricultural economy; farms; transaction costs; land use efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируется становление и развитие азиатского метода производства в сельском хозяйстве Узбекистана. Азиатский способ производства — социально-экономическая система, широко распространенная в Узбекистане с древнейших времен и сформировавшаяся на основе землевладения, водных ресурсов и аграрных отношений. В статье рассматриваются особенности этого способа производства, методы и технологии, используемые в сельском хозяйстве, а также его значение и влияние на сельское хозяйство Узбекистана сегодня.

Ключевые слова: Азиатский метод производства; сельскохозяйственная экономика; фермы; транзакционные издержки; эффективность землепользования.

KIRISH

Tariximizni ilk mustaqillik yillarini o'rgangan izlanuvchi bir muhim holatga e'tibor beradi: birinchi besh yillik davomida eng ko'p qabul qilingan qarorlar (tashkiliy-ma'muriy masalalardan tashqari) qishloq xo'jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid bo'lgan. Bu holat mantiqiy asosga ega: Osiyo mamlakatlarning ko'pchiligida bo'lgani kabi O'zbekiston jamiyati va iqtisodiyotida azaldan qishloq aholisining va qishloq xo'jaligining o'rni katta bo'lgan. Arab mutafakkiri, deb tanilgan Ibn Xoldunning (1332–1405)¹ ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligi kishilik jamiyatining rivojlanish darajasi tarixiy jarayon ma'nosi va mazmunini belgilaydigan omil bo'lib, uning rivojlanishi, "zarur" va "zarur bo'lmagan" buyumlar bilan fuqarolarni ta'minlash talabi, eng avvalo, shahar aholisining zichligiga bog'liq. Jamiyatda shaharlar ko'proq rivojlangan bo'lib, ular mamlakat hayotida asosiy rol o'ynasa, unda "zarur" va "zarur bo'lmagan" buyumlar yetarli bo'ladi; bunda: birinchisining ahamiyati va hajmi pasayib boradi, ikkinchisining esa, aksincha o'sib boradi. Ilk mustaqillik yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligida aynan zarur buyumlar ahamiyati katta edi va qishloqda bevosita zarur bo'lmagan buyumlar deyarli yo'q edi. Ana shu zarur buyumlar miqdori va ichki tuzilishi mamlakat xalqini ochlikdan saqlashning yagona najoti hisoblangan.

1 Alidjanova, Lazizakhon Abbasovna. "Questions of religion and society in the works of Ibn Khaldun", The Light of Islam: Vol. 2020 (1). p. 2-8. URL: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2020/iss1/5>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Butun XX asr davomida Osiyocha ishlab chiqarish usuli haqidagi munozaralar Yevropa va Osiyo mintaqalaridagi mutafakkirlar “johillik”, “qoloqlik”, “vahshiylik” kabi sifatlarga urg'u berganlar².

Bu masalada G.V.Plexanov³ ham muntazam ravishda izlanishlar olib borib, Osiyocha ishlab chiqarish usulini feodalistik ishlab chiqarish uslublaridan biri, deb talqin qilgan. Bu mavzu R.Foksning⁴ asarlarida ham asoslangan bo'lib, unda R.Foks 3 muhim xislatni e'tirof etdi: “Birinchi va eng muhimi, yerga xususiy mulkchilikning yo'qligi. Umuman, hamma joyda bo'lmasa-da, Sharqda hukmdor davlatdagi barcha yerlarning egasi hisoblanadi. Ijara unga yerdan olingan mahsulot bilan to'lanadi va ko'plab amaldorlar tomonidan qat'i belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq undiriladi. Ikkinchidan, bu iqtisodiy tizimning negizi qishloq jamiyati ichida dehqonchilik va hunarmandchilikning yaqindan integratsiyalashuvidir... Uchinchidan, suv ta'minoti qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblangan sharqiy mamlakatlarda barcha jamoat ishlari – sug'orish, kanallar, aloqa yo'llari va hokazolar davlat qo'lida bo'lishi muqarrar”. Ya'ni, R.Foks ishlab chiqarishning Osiyo modeli yuzaga kelishida yerga egalik huquqi bo'lmaganligi ma'lum ma'noda suv resurslari tanqisligining yuridik hosilasi deb qarasa ham, aynan dehqonchilik va hunarmandchilikning yaqindan integratsiyalashuvini belgilovchi omil sifatida e'tirof etadi.

O'zbekistonda sobiq ittifoq davrida sug'oriladigan yer maydonlarining ochilishi va ularga suv yetkazib berishda markazlashtirilgan davlatning roli (asosiy g'oyani ishlab chiqish, iqtisodiy asoslash, texnik yechim loyihasini yaratish, investitsiyalar ajratish va nihoyat, amalga oshirish sohalarida) katta bo'lgan⁵. 1973–1993-yillarda O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy tadqiqot institutini boshqargan, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligida rahbar lavozimlarda ishlagan professor V.A.Duxovniyning 400 dan ortiq ilmiy ishlari va 17 ta monografiyasida ham qishloq xo'jaligi boshqaruviga suv muammolarining ta'siri haqida batafsil aytib o'tilgan⁶.

Professor T.Yu.Lesnikning aytishicha, 1924-yilda O'zbekiston sobiq ittifoq tuzilishi bilan suv ishlari boshqarmasi tuzilgan va 1928 yilda “Yer va suv islohoti” haqidagi Dekret davlatning suv xo'jaligiga bo'lgan munosabatini uzil-kesil aniqlab bergan⁷. Qisqa qilib aytganda, o'sha paytda O'rta Osiyo mamlakatlari sharoitida suv resurslarining roli va ularning taqsimoti hududdagi mamlakatlarning kelajagiga qanday ta'sir qilishi O'zbekiston olimlari va ma'muriy rahbarlari tomonidan qabul qilingan aksioma edi. Aynan shu faktor davlatning qishloq xo'jaligi iqtisodiy subyektlari faoliyatiga keng aralashishiga va mamlakatda Osiyocha ishlab chiqarish usuli shakllanishiga asos bo'ldi. Ishlab chiqarish vositalari butunlay davlat mulki bo'lib, u yerda individlar mehnatidan foydalanib, ularning mehnatiga ishchi kuchi imkoniyatlarini qayta tiklash uchun yetarli miqdordagina haq to'lanib, mehnat natijalari ham undagi ishchi kuchi qiymatidan birmuncha yuqori bo'lgan qo'shilgan qiymat bilan to'la miqdorda davlat tomonidan taqsimlanar va qayta taqsimlanar edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usulining ta'siri tendensiyalarini o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligida ijara munosabatlari asosida yerdan foydalanish huquqini rivojlantirish eng katta ikki muhim masalani hal qilishga sharoit yaratib berdi: qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi oziq-ovqat yetishmovchiligiga yo'l qo'ymadi hamda qishloq xo'jaligida, fermerlarda davlat buyurtmasi va o'z ehtiyojidan ortgan dastlabki qo'shimcha mahsulotlar paydo bo'ldi, ya'ni qishloq xo'jaligiga bozor munosabatlari qisman bo'lsa-da, kirib keldi.

Qishloqda iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichiga o'tilishiga barcha sharoitlar yuzaga kelayotgandek edi. Bu bosqichning mazmuni - qishloq xo'jaligidagi asosiy aktivlarning bozor munosabatlari, ya'ni qo'shimcha

2 V.N.Никифоров: “Восток и всемирная история”. АН СССР, Институт Востоковедения. “Наука”, 1977 й. 34-бет. <https://studfile.net>

3 Г.В.Плеханов, III том. “Марксизмнинг асосий масалалари”, 1957 йил. 165-бет.

4 Р.Фокс “Маркс ва Энгельснинг Осиё ишлаб чиқариш услубига муносабатлари ва ularning манбалари”, 56-бет

5 С.Тулеевулов: “Социалистик ўзгаришлар ва Ўзбекистонда суғориладиган ерлар ривожланиши (1917-1965 йиллар)” тарих фанлари доктори диссертацияси, 1983 йил, <https://www.disserscat.com/content/sotsialisticheskoe-preobrazovanie-i-razvitiie-oroshaemogo-zemledeliya-uzbekistana-1917-1965-g>.

6 В.А.Духовный: <http://www.sic.icwc-aral.uz>

7 Т.Ю.Лесник. История развития мелиоративных систем агроландшафтов Сурхандарьинской области республики Узбекистан. <http://www.cawater-info.net/bk/irrigation-agriculture/files/nasrulin-et-al.pdf>, 51-бет.



foyda olishning manbaiga aylanishi va bu aktivlarga foyda keltirish negizi sifatida investitsiyalarning jalb qilinishi edi. Lekin o'tgan tarixda haddan tashqari markazlashgan hokimiyat O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usulining asosiy elementlari o'rnatilishiga olib kelib investitsiyalar hajmini keskin chegaraladi, chunki:

- asosiy ishlab chiqarish vositasi – yer hanuzgacha davlat tasarrufida qolib, undan foydalanish huquqi vaqtincha va aniq bo'lmagan shartlar asosida ishlab chiqaruvchilarga berilar edi;

- ishlab chiqaruvchilar yerni saqlash va uning sifatini oshirish uchun sarflangan xarajatlarini to'la hisoblab, uni isbotlab, bu xarajatlarini yer egalariга kompensatsiya qilish uchun davlat institutlariga ko'rsatib bera olmas edilar, transaksion xarajatlarni aniqlash, ularni hisobini yuritish atrofida bozor munosabatlari yuzaga kelmagan edi.

- yerga ijara haqi pul qiymatida o'rnatilgan bo'lmas-da (ijara haqi yo'q edi, yerdan dehqonlar "tekin"ga foydalanar edi), dehqonlar bilan hosil bo'yicha to'lovlar qisman natural ayirboshlash orqali amalga oshirilardi. Dehqonga moddiy-texnika xizmatlari, o'g'itlar va ma'lum miqdorda pul-kredit resurslari bo'lajak hosilning umumiy pul hajmidan kelib chiqib, uning 50% miqdorigacha avvaldan ajratilib, bahor va yoz oylarida berilar edi. Ammo katta inflyatsiya ortidan qishloq xo'jaligida ishlatiladigan yoqilg'i-moy, kimyoviy moddalar va o'g'itlarning narxi birdaniga hosil bo'lgan katta talab tufayli yil davomida uzluksiz ortib borardi.

- Shu bilan birga, qishloq xo'jalik mahsulotlariga yil davomida davlat xarid narxlarini bir marotaba belgilanardi va juda kam hollarda qayta ko'rib chiqilardi. Oqibatda ana shu 50% deb belgilangan tovar-moddiy boyliklar qiymati kuzga borib hosil qiymatining aksariyatini tashkil etardi. Dehqonlar yetishtirgan hosilning katta qismini avans tarzida olingan va hosil yetishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika, o'g'it va yoqilg'i resurslari qiymatini qoplash uchun davlat tashkilotlariga natural tarzda qaytarib berardi edilar;

- ishlab chiqarish vositasi markaziy hokimiyat vakili tomonidan turli asosli/asossiz, muhimi obyektiv o'lcham va mezonlarga ega bo'lmagan sabablar bilan har qanday vaqtda tortib olinishi mumkin edi va sud organlari bunday nizolarni doimo hokimiyat vakili hisobiga hal qilardi edilar. Bunday huquqsizlik sharoitida yerdan foydalanish huquqining o'zi bozor munosabatlari elementi bo'la olmas va yerga investitsiya kiritish motivatsiyasi va sharoitlarini butunlay bekor qilardi;

- yerga ishlov berishda dehqon-fermer birinchi navbatda oila a'zolari va yaqin qarindosh, qo'shnilari mehnatidan foydalanardi edi. Bu mehnat natijalari yaxshi bo'lishiga sharoit yaratib, qishloq xo'jaligi ko'lami kengayishiga to'siq ham bo'lar edi, chunki katta miqdorda mexanizatsiya kuchisiz katta yer maydonlarini tezda va sifatli qayta ishlashga imkoniyat bo'lmas edi. Yerga va mehnat natijalariga to'la ega bo'lmagan fermer-dehqon mashina va mexanizmlarni qo'llashda chegaralangan imkoniyatlarga ega edi. Dehqonlar bu natural ayirboshlash girdobidan mustaqil chiqib keta olmasdilar va yerga xuddi feodalga bog'langan kabi bog'lanib qolgan edilar. Bu bog'liqlikning asosida 3 ta shart turardi edi:

- a) yer faqatgina davlat uchun kerakli bo'lgan mahsulot (asosan paxta, bug'doy, sholi, chorva) yetishtirib berish shartlari bilan berilardi edi. Agar xo'jalik davlat buyurtmasidan ma'lum bir sabablar tufayli bosh tortsa (rentabellik yo'qligi, yerga ishlab berishga iqtisodiy, jismoniy imkoniyati yo'qligi), undan yer tortib olinardi. Butun daromadi, turmushi yerdan olinadigan hosilga qarab qolgan oilalar uchun bu yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat edi;

- b) ko'pgina qishloq aholisi va oilalari uchun yer nafaqat davlat buyurtmasini bajarib daromad topish, balki o'z birlamchi turmush ehtiyojlarini qondirish uchun yagona daromad manbai edi. Shuning uchun ham ko'p fermerlar o'z shaxsiy mulklarini garovga qo'yib bo'lsa-da davlat buyurtmasini bajarishga harakat qilardi edilar;

- c) kelasi yil hosildan umid qilish qarzgaga botgan fermerlar uchun yerni saqlab qolishning yagona imkoniyati edi;

- yerga qanday va nima maqsadda ishlov berish, qanday foydalanish masalalarida fermerlar-dehqonlar erkin emas edi. Yer davlat uchun kerakli va ichki-dunyo bozorida katta likvidlik darajasiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga ishlatilgan holdagina davlat va fermer-dehqon o'rtasida yerning samarasi haqida nizo tug'ilmas edi;

- yerning sifatini saqlash, unga minimal miqdorlarda bo'lsa-da, agrotexnika qoidalari bilan ishlov berish uchun dehqon-fermer hanuzgacha to'liq davlat taqsimotida bo'lgan agrokimyo va mashina-traktor korxonalari bilan muloqotga kirishi kerak edi;

- dehqonlar qishloq xo'jalik mahsulotlariga narxlar belgilashdagi xatolar, hamda shahar va qishloq mahsulotlari o'rtasidagi narxlar qaychilari tufayli yerni tashlab ketish imkoniyatlari chegaralangan edi, chunki yer nafaqat ishlab chiqarish vositasi, balki hayot tarzi, oilaviy ahillik manbai ham edi.


Yuqorida ko'rsatilgan barcha faktorlar jamlanmasi yerdagi neofeodal munosabatlar o'z-o'zini takror ishlab chiqarishga cheksiz manba yaratgan.

Mustaqillik yillarida esa, yerga bo'lgan huquqiy munosabatlarning rudimentar holda qolib ketishi, hokimlar almashganda fermerlar bilan bo'lgan barcha shartnomalarning mohiyatini qayta ko'rib chiqish amaliyotlari hamma yaxshi boshlangan ishlarni salbiy natijaga olib keldi. Mulkchilik shaklidagi mavhumlik bu sohada keskin to'siq bo'la boshladi. Davlat yakkahokimligi qishloq xo'jalik korxonalari bilan bo'lgan shartnomalar har



bir ma'muriy o'zgarish sharoitida qayta ko'rib chiqilishiga sharoit yaratib berar edi (hokim o'zgarsa bas). Yerni almashib ekish, yerga ishlov berish, mirishkorlik va melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish juda katta mashaqqatli va uzoq muddatda samara beruvchi omillar hisoblanadi. Agar yerdan foydalanish huquqi mavhum bo'lsa, hech kim yerga ko'p yillik mehnatga asoslangan, lekin zarur bo'lgan kuchni va mehrni sarflamaydi. Chunki bunday holatda iqtisodiy stimuly mavjud bo'lmaydi. Yerga ishlov berishda keyingi bosqichga chiqish teng huquqlik fermerlar uyushmalari yoki ma'lum mahsulotni qayta ishlashda bir nechta texnologik jarayonlarni qoplovchi qishloq xo'jalik aglomeratsiyalari barpo bo'lishini taqozo etar edi. Fermerlar texnik, iqtisodiy va mehnat resurslari imkoniyatlarini yerga bo'lgan mulk huquqi asosidagina birlashtirishlari, ularni bozor instrumentlariga aylantirishlari mumkin edi. Ular yirik xo'jaliklarga birlasha olganida edi, hozirgi klasterlarga o'xshab mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylangan bo'lar edilar.

Xususan, 1991-yili O'zbekiston qishloq xo'jaligida deyarli faqat "zarur" bo'lgan ishlab chiqarish mahsulotlari mavjud edi. Strategik xom-ashyo hisoblangan paxta 5 mln tonna atrofida, g'alla esa 940 ming tonna miqdorida yetishtirilardi.⁸ Lekin mehnat unumdorligi juda past va paxtadan sentneridan 17 tonna, g'alladan esa 20 tonna hosildorlik olinardi.⁹ Qishloqda umumiy aholining 58% dan ortig'i yashab, qishloq xo'jaligida umumiy mehnat resurslarining 41% dan ortiq qismi band edi. 2011–2012-yillarga kelibgina ro'yxatga olingan qishloq aholisining tabiiy o'sish sur'atlari shahar aholisining tabiiy o'sish sur'atlaridan birmuncha ortiq bo'lgani uchun qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nisbat deyarli o'zgarishsiz qoldi(1-rasm).



1-rasm. 2010–2023 yillarda asosiy demografik ko'rsatkichlarning o'zgarishi.

2011 yildan 2023 yilgacha qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi nisbat 48,8–49,0% tashkil etib, mo'tadil ravishda qolmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar tabiiy-ki, norasmiy va kunlik-mavsumiy migratsiyani o'z ichiga olmaydi.

Yuqoridagi faktorlar qishloqdagi aholining yashash sharoitiga, qishloqdagi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga katta e'tibor zaruratini taqozo etgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida bunday e'tibor o'rinli ham bo'lgan, xususan, yetishtirilgan paxta, don hosilini yig'ib, davlat zaxiralariga olish, chorva mollarini yetishtirish va bozor talabiga nisbatan adolatli narxlarni belgilashga qattiq urg'u berilgan¹⁰.

Dehqon (fermer) xo'jaliklari faoliyatiga ko'mak berish va davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llash, yerga bo'lgan umumxalq sotsialistik egalik huquqi konsepsiyasiga qarshi o'laroq, davlat va dehqon (fermerlar) o'rtasidagi yer munosabatlarini ilk bor bozor mexanizmiga o'tkazish¹¹ davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylangan edi. Tarixda birinchi marta davlat bilan dehqon o'rtasida (fermer xo'jaligi, deb atalgan yuridik atama

⁸ <https://www.gazeta.uz>

⁹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 10.09.1993 йилдаги 450-сон. <https://lex.uz>

¹⁰ https://nrm.uz/contentf?doc=67396_1992_g.

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 29.11.1991 й., №ПФ-295: <https://lex.uz/ru/docs/233867?ONDATE=29.11.1991%2000>



bilan) yerni 10 yilga ijaraga olish mexanizmi kiritildi. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlariga qisman bo'lsa-da, o'tish – yerdan foydalanishga bo'lgan huquqni ta'sis etishni taqozo qilar edi. Chunki bu holatda davlat o'zining mulk huquqidan qisman kechib, umumxalq manfaatlariga uchun xizmat keltiruvchi yangi tipdagi ishlab chiqarish kuchlarini yaratgan bo'lar edi. Natijada qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan xalqning nafaqat eng kerakli ehtiyojlarini qondirish, balki o'z mahsulotini bozorga taklif qilish, qo'shimcha foyda olish imkonini yaratildi.

Ikkinchidan, yerlar aylanmadagi paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari maydoni bo'lgan sug'oriladigan yerlar hisobiga berilgan edi. Ya'ni yerning hosildorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri – suvni taqsimlash masalasini ham yechishga (keyinchalik bu boradagi yechilmagan muammolar salbiy oqibatlariga olib kelgan bo'lsa ham) asos yaratilgan edi.

Uchinchidan, yerni qayta ishlash uchun turli mexanizatsiya vositalaridan foydalanish zarurati bor edi, chunki fermer shu vaqtgacha kolxoz va sovxozlarning traktor va boshqa mexanizatsiyalashgan anjomlari bilan ishlov berilayotgan katta maydonlarni oilasi kuchi bilan eplay olmas edi. Natijada davlat mavjud qishloq xo'jalik mashina-texnik stansiyalari yordamida dehqonga xizmat ko'rsatish mexanizmini ham ishga tushirdi – hozircha davlat qo'lida bo'lgan yoqilg'i-moylash va qishloq xo'jaligi texnikasi resurslaridan (traktor va omochlar) foydalanishning bozor mexanizmi ishga tushirildi. Bo'lajak hosilning 50% miqdoriga qadar davlat tomonidan avans tarzda turli kimyo va boqa zarur mollar berish va xizmatlar ko'rsatish, O'zagroprombank tomonidan dehqon (fermer) xo'jaliklariga don va qurilish materiallari sotib olish, yordamchi xo'jaliklar yuritishga naqd pul shaklida kreditlar berishga ruxsat etildi. Davlat tomonidan o'rnatilgan mahsulot yetishtirish va sotish rejasi miqdoriga nisbatan davlatning moliyaviy resurslaridan davlat banklari kanallari asosida fermerlarga avvaldan avans to'lash (kreditlar berish) va rejani bajarayotgan korxonalarga kolxoz va sovxozlardan mashina va turli moddiy resurslarni sotib olish huquqlari berildi. Barcha barter shartnomalariga ruxsat berish va ularni ro'yxatdan o'tkazish Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki zimmasiga yuklatildi.

O'z davrida bunday prinsipial qarorlarning qabul qilinishi mamlakatimiz rivojlanish vektori mazmunini bo'lajak 25 yilga belgilab berdi. Qishloq xo'jaligi boshqaruviga xos bo'lgan fundamental kamchiliklar tufayli shuncha o'tgan davr mobaynida davlat va fermer (tadbirkor) o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarda o'sha vaqtda belgilangan normalardan tashqari hal qiluvchi o'zgarishlar yuz bermadi.

Ta'kidlash joizki, 2016-yildan mamlakatda samarali qishloq xo'jaligi istlohotlari o'tkazila boshlandi. Buni mamakat qishloq xo'jaligi klaster tizimiga o'tishi bo'yicha jadal islohotlariga ko'rish mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida tashkil yetilgan paxta-to'qimachilik klasterlari paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish bo'yicha inqilobiy burilish bo'ldi.

Bu innovatsion islohotlar bir qator ilg'or sug'orish texnologiyalarini joriy yetish va zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olish qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda tatbiq etilmoqda. Raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligiga katta foyda keltiradi, undagi xavflarni kamaytirish, inson omilini bartaraf etish, yo'qotishlarni kamaytirish va qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu raqamli texnologiyalarni mamlakatimizdagi amaliyotda joriy etish bir necha cheklovlar bilan murakkablashadi. Jumladan, masalaning zaif ilmiy-texnik o'rganilishi, bundan tashqari, ushbu raqamli texnologiyalarni amalda qo'llash uchun ko'plab fermer xo'jaliklarida hozirda yetarli bo'lmagan katta mablag'lar kerak.

Bu sohada amaliy tajriba va ilmiy asoslarning yo'qligi ham katta to'siq, deb ayta olamiz. Biroq, bu qiyinchiliklarga qaramay, raqamli texnologiyalarning kelajagi istiqbolli, qishloq xo'jaligida, ayniqsa, tashkil etishning klaster shaklidagi korxonalar orasida yangi texnologiyalarga qiziqish tobora ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmoni bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qarorda qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari belgilab berilgan bo'lib, qishloq xo'jaligini eskicha rivojlanishdan innovatsion rivojlantirishga olib chiqishga asos bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakat aholisining qariyb 50 foizi yashayotgan hududlarda, iqtisodiyotning 4 to'rtidan bir qismini tashkil etayotgan va qariyb 3,5 mln. kishi band bo'lib turgan mazkur sohada tegishli islohotlarni jadallashtirish, albatta kelgusida mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuli qadimiy davrlardan beri muhim o'rin tutib kelgan. Ushbu ishlab chiqarish usuli o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo'lib, yer egaligi, suv resurslari va agrar munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab elementlarni o'z ichiga oladi.

Maqolada keltirilgan tahlillarga asoslanib, bugungi kunda ham O'zbekiston qishloq xo'jaligida ushbu usulning ayrim an'anaviy jihatlari saqlanib qolganligini va ular zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin.



Shu bilan birga, kelgusida qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va global bozor talablari bilan uyg'unlashishi uchun yangi texnologiyalarni joriy etishda ushbu usulning foydali tomonlarini inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вахатов К.И, "Кооперация".—М.: 2007 Г.—556 с.
2. Василенко М.А. "Организационно-экономические основы агропромышленной интеграции на сельскохозяйственных предприятиях и в объединениях".—М.: МСХА.—1981.
3. Глазовений Н.Ф. Гордеев А.В Дасюн Г.В. "Устойчивое развитие сельского хозяйства и сельских территорий", "КМК".—М.:2005-615 ст.
4. Гусаков В.Г. "Основные объективные законы, закономерности принципы рыночной экономике" Минск. "Белорусская наука". —2006-86 ст.
5. "Городец"—М.: 2006. П.Добрынин В.А. "Государственное регулирование агропромышленного производства".—М.: МСХА. РФ. 1998.
6. Juraev F. "Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish".—T.: "Istiqlol". —2004-344 b.
7. Zokirov O., Pardaev A. "Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti". —T.: UAJBNT, 2003 260 6.
8. Ismoilov A., Murtazaev O. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti". —T.: 2003-y.
9. Abdullaev A.A. Aybeshov X.A. "Fermar xo'jaligi iqtisodi". —T.: "Aloqachi" 2008. —172 .
10. Аллахвердиев А.И. "Развитие форм кооперации в аграрном секторе АПК" "Экономика". 2003-253 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

